# Transport va savdo xujjatlari. Transport tizimini axborotlar bilan ta’minlash

2-MAVZU

# Reja

- Transport xarajatlarining asosiy turlari va ularni  shakillantirishning tamoyillari, savdo xujjatlari .
- Transport xujjatlari, xarajatlar klasifikatsiyasi, o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlar. Transport ekspeditor servisining xarajatlari.
- Savdo xujjatlari, turli transport tashuvlari xajmi va ulardan foydalanishga ketadigan xarajatlar.
- Avtomobil transporti orqali yuk tashish xarajatlarini qiqartirishning asosiy yo‘nalishlari.

kullabs.com

# Transport xarajatlarining asosiy turlari va ularni shakillantirishning tamoyillari

- Tadbirkorlar, umuman barcha ishlab chiqaruvchilar
  - tashqi iqtisodiy faoliyat yuritishni boshlar ekanlar
    - ular uchun zarur yuklarni belgilangan manzilga tez va zararsiz yetkazish asosiy maqsadga aylanadi
  - Transport tashuvlarida qo‘llaniladigan transport va savdo hujjatlarini yuritishni mukammal bilish
    - transport tashuvlarida ishtirok etayotgan barcha taraflarning ishini yengillashtiradi
    - mazkur transport tashuvini yuqori sifatda bajarilishiga asos yaratadi

# Transport-ekspeditorlik xizmatlari



## Yuklarni tashishda transport-ekspeditorlik xizmatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Kemalarni fraxtlash va fraxtlar bo‘yicha hisob-kitoblar qilish; | Tashqi savdo opretsiyalari bitimlari bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish; | Hisob-kitob va ekspeditorlik operatsiyalari bo‘yicha konsultatsiyalar; | Yuklarni bojxona deklaratsiyasini amalga oshirish; | Yuklash-tushirish ishlari; | Avtomobil tashuvlari; | Mahsulot hujjatlarini rasmiylashtirish; | Yuklarni sug‘urtalash; |

# Amaliy boshqaruv

## To‘g‘ri tashkil etilgan tashish ishining amaliy boshqaruvi

- to‘g‘ri tashkil etilgan hujjatlashtirish
- hujjat aylanmasi
- hamda barcha transport jarayonlarini axborotlashtirish va kompyuterlashtirish yordamida amalga oshiriladi.

## Xalqaro yuk tashuvlarida mahsulotning transport hujjatlari

- tanlangan transport vositasi turiga qarab xalqaro muomalada qo‘llaniladigan tilda tayyorlanadi.

# Bunday hujjatlarga misollar:

- Aviatsion yo‘l varaqasi (Air Waybill);
- Xalqaro avtomobilyukxati (CMR);
- Konosament (Bill of Lading);
- Yuk vedomosti (Cargo Manifest);
- Tir-Karnet (TIR-Carnet)
- Va boshqalar.

# Ekspeditorlik xizmati



Yuk tashuvi jarayonida ekspeditorlik xizmatidan foydalanilganlik yagona transport hujjati yoki hujjatlar to'plamining

- temir yo'l
- avtomobil yo'llari
- aviatsion yo'l varaqasi
- konosament va shunga o'xshash taqdimoti bilan isbotlaniladi

bu hujjatlarda yukning boshlang'ich harakat nuqtasidan to yakuniy manziligacha harakat yo'nalishi ko'rsatilgan bo'ladi.

# Transport turi

Ma’lum transport turida tashish ishini tartibga soluvchi

amaldagi umumiy kodeks nizomlar bilan bir qatorda har bir aniq holda ham tashish shartnomasi tuziladi

Hujjatda yuk tashuvchi aytilgan yukni belgilangan muddatda berilgan manzilgacha tashib berish

jo‘natuvchi esa belgilangan tartibda yuk tashuvchi ishiga xaq to‘lash majburiyatlarini oladilar

# Transport xujjatlari, xarajatlar klasifikatsiyasi, o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlar. Transport ekspeditor servisining xarajatlari

**Transportning har xil turlari uchun yuk tashish ishlarini hujjatlashtirish**

- hamda tuzilayotgan yuklash hujjatlari o‘z xususiyatlariga ega

**Har xil transport turlari uchun yuk tashish hujjatlarining klassifikatsiyasi**

- temir yo‘l transporta uchun, shartnoma kuchiga ega bo‘lgan birlamchi hujjat bu nakladnoy

**U jo‘natuvchi tomonidan tuziladi**

- Shuningdek kerakli hujjatlarga yo‘l vedomosti
- yo‘l vedomosti koreshogi
- yukni qabul qilganlik to‘g‘risida kvitansiya ham kiradi

**Temir yo‘l ishini nazorat qilish uchun asosiy hujjat bo‘lib yo‘l vedomosti koreshogi xizmat qiladi**





# Yukni avtomobil va dengiz transportida tashish

- **Yukni avtomobil transportida jo‘natganda**
  - tashish uchun namunaviy shartnoma asosiy hujjat hisoblanadi
  - Buyurtmachi va avtotransport tashkiloti o‘rtasidagi hisob-kitoblar uchun tovar-transport yukxati tuziladi
- **Dengiz transportida yuk doimiy harakatlanuvchi kema orqali tashilsa**
  - mazmuni bo‘yicha yukxatiga o‘xshash konosament deb ataluvchi hujjat tuziladi
- **Agarda kema doimiy shu yo‘nalishda harakatlanmasa**
  - u holda charter shartnomasi tuziladi
- **Portlararo yuk tashish holati yuz berganda**
  - birlamchi hujjat bo‘lib ortish orderi xizmat qiladi

# Har xil transport turlarida yuklarni tashishni tashkil etishda lozim bo‘lgan hujjatlarning tavsiflanishi

**Yuklarni tashish hujjatlari**

- Dengiz transportida
  - Charter
  - Konosament
  - Konosament
    - Nomli
    - Orderli
    - Taqdim etilgan
  - Ortish orderi
- Daryo transportida
  - Navigatsiya shartnomasi
  - Накладной
    - Quruq yuklar
    - Universal konteynerlar
    - Tortish
    - Neft mahsulotlari
- Temir yo‘l transportida
  - Накладной
  - Yo‘l vedomosti
  - Vagonlar varag‘i
  - Yo‘l vedomosti koreshogi
  - Yukni qabul qilganlik to‘g‘risida kvitansiya
- Avtomobil transportida
  - Namunaviy shartnoma
  - Tovar-transport yukxati
- Havo transportida
  - Yo‘l varaqasi
  - yukxati

# Hozirgi kunda transport jarayoni

## Ichki daryo transportida asosiy hujjat bu navigatsion shartnomalardir

- Bu shartnomalar mavsumiy bo‘lib navigatsiya (kemalar yurishi) boshlanishidan oldin tuziladi
- Bu holda ham yukni kuzatuvchi hujjat bo‘lib nakladnoy xizmat qiladi

## Havo transportida ham yuk tashish

- o‘ziga xos holda to‘ldirilgan nakladnoylar orqali amalga oshiriladi

## Yuklarning yirik partiyalarini mintaqalararo tashishga ixtisoslashgan

- avtomobil transporti kompaniyalari o‘zlarining yuqori tezlikka
- katta yuk ko‘tarish imkoniyatiga ega tirkamali avtomobillarini
- hamda katta yuk ko‘tara oladigan yarim tirkamalari mavjud

## Bunday yuk ko‘tara oladigan va yuqori unumdorlikga ega texnikani to‘liq ishlatish uchun

- yuk tashuvchi kompaniyalar boshlang‘ich manzilda tashiladigan yuklarni yig‘adilar
- oxirgi manzilda esa ularni kichik partiyalar bilan qabul qiluvchilarga yetkazadilar

# Xalqaro va qitalararo bozorlar

Xalqaro va qitalararo bozorlarning rivojlanishi — dengiz yo‘li orqali tashishni amalga oshirish katta ahamiyatga ega

Har xil transport turlarini o‘zaro hamkorlikda faoliyatini amalga oshirish uchun — port inshootlarini, ortish-tushirish terminallarini, — ombor inshootlarini, kirish yo‘llarini, — saralash moslamalarini, harakatlanish vositalarini — hamda ortish-tushirish mexanizmi va uskunalarini rivojlangan tarmog‘i zarur bo‘ladi

Shuning uchun ham tashishning tijorat operatsiyalarini — yuklarni tayyorlash va qabul qilish, — hujjatlarni to‘ldirish, to‘lov va har xil yig‘imlarni undirish, — plombalash, manzil o‘zgartirishni rasmiylashtirish, — qabul qiluvchilarga topshirish

# Tashuvlarni tashkil etish

| Tashuvlarni tashkil etish jarayonida ko‘mak beruvchi sheriklarni tanlash quyidagilarni o‘z ichiga oladi: | | |
|---|---|---|
| tashish uslubini (turini) tanlash (maxsus adabiyotlarda tashish usuli yoki yuklarni yetkazish tizimi deb ham yuritiladi); | transport turini (bir nechta turlarini) tanlash; | tashishda ko‘maklashuvchi asosiy va yordamchi sheriklarni tanlash. |

# Tashuvlarni tashkil etish jarayoni



# Savdo xujjatlari, turli transport tashuvlari xajmi va ulardan foydalanishga ketadigan xarajatlar

Xalqaro transport jarayonlarida hujjatlar tizimida transportga tegishli hujjatlardan tashqari

- transportirovkani yengillatuvchi tovarga ilova qilinadigagn boshqa hujjatlar ham mavjud

Bunday hujjatlarni bir xillashtirish bilan

- Xalqaro savdo palatasi va Xalqaro savdo tartiblarini soddalashtirish qo‘mitasi ( SITRO) shug‘ullanadi

# Yuk tashuvlarida quyidagi tovarga ilova qilinadigan hujjatlardan foydalaniladi:

**Schet-faktura (invoice)**

- hamisha tovarlarni jo‘natishda tuziladigan tijorat hisob-varag‘i

Mazkur hujjatning asosiy vazifasi to‘lov summasini ko‘rsatishdir

- schet-faktura tovar nakladnoyi sifatida ishlatilishi mumkin

Bojxona organlari talabiga ko‘ra

- schet-faktura belgilangan shaklda to‘ldiriladi va bir vaqtning o‘zida tovarning kelib chiqish sertifikati sifatida qo‘llaniladi

# Schet-fakturada quyidagi ma’lumotlar berilgan bo‘ladi:

- Bitimda ishtirok etayotgan tomonlar nomi va manzili;
- Tovarga egalik huquqini beradigan bitim to‘g‘risidagi ma’lumot (nomer va sana),;
- Yuk tavsifi va tovar kodlari;
- Yuk joylari miqdori;
- Yukning brutto va netto og‘irligi;
- Yuk birligining bahosi va umumiy baho;
- “Inkoterms” bo‘yicha yetkazib berish shartlari.

# *Konsullik schet-fakturalari (consularinvoice)*

| | |
|---|---|
| ***Consularinvoice*** | schet-fakturalarning, odatda, yuklar eksportida kerak bo‘luvchi tranzit<br>oxirgi manzilidagi davlat tiliga tarjima qilingan nusxasidir |
| Import | qiluvchi davlatlar kelayotgan schet fakturalar o‘zlarining eksport qilayotgan davlatlardagi konsulliklarida ruxsat olgan bo‘lishlarini talab qiladilar |

# *Packinglist, upakovichniy list,* shipping specification

- ***Qadoqlash varag'i***
  - tovarga ilova qilinadigan asosiy hujjatlardan biri
  - Qadoqlash varag'i, odatda, qadoqda maxsus joyga solinadi
  - Qadoqlash varag'ida quyidagi ma'lumotlar bo'ladi:
    - har bir navdagi tovar miqdori (qadoqdagi dona)
    - qadoq nomeri (joyi)
- **Tushirish spetsifikatsiyasi**
  - berilgan partiyaga tegishli barcha tovarlar turlari va navlari ro'yxatini o'ziga oluvchi tijorat hujjatidir
  - Bu hujjatda har bir joyning miqdori va tovar turi ko'rsatilgan bo'ladi
  - Spetsifikatsiya turli turdagi va navdagi tovarlarni yetkazib berishda tashuvlar sifatli o'tishini va barcha tovarlar o'z joyidaligini tekshirish uchun katta ahamiyatga ega

# Manifestof cargo, bordero

- **Yuk manifesti**
  - biron transport vositasida tashilayotgan tovarlar ro‘yxati beriladigan hujjatdir
  - Yuk manifestida tovar haqidagi quyidagi ma’lumotlar beriladi:
    - transport hujjatlarining raqami;
    - yuk oluvchi va yuk jo‘natuvchilarning nomi;
    - Markirovka, miqdor, massa ;
    - Tovarlar tasnifi va miqdori
- **Bordero**
  - yuk manifestiga o‘xshash hujjat
  - avtomobil tashuvlarida qo‘llaniladi
  - CMRda keltirilgan yuk ro‘yxati yozilgan bo‘ladi

# Certificateof quality

- **Tovar sifati to‘g‘risida sertifikat**
  - bitta yuk tashish hujjatida jo‘natilayotgan har bir tovar partiyasiga beriladi
  - Odatda, bu hujjat oziq-ovqat mahsulotlariga, kosmetika mahsulotlariga zarur
  - Bu sertifikatda quyidagilar ko‘ratiladi:
    - Sertifikatni bergan tashkilot;
    - Sertifikat nomeri;
    - Sertifikat berilgan sana;
    - Tovar nomi;
    - Yetkazib berivchi nomi;
    - Oluvchi nomi;
    - Tovar xarakteristikasi va uning navi;
    - Tovar miqdori va joy soni;
    - Tovar ishlab chiqarilgan sana;
    - Tovarning ma’lum standartga movofiqligi.

# Phitosanitary certificate, Fumigation certificate



# Sertificate of analysis, veterinary certificate, sertificate of dangerous goods

**Gigiyena sertifikati**

- kishi salomatligiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan mahsulotlarga talab etiladi

**Veterinar sertifikati**

- hayvonlar, go‘sht mahsulotlari importida rasmiylashtiriladi

**Xavfli yuklar sertifikati**

- xavfli yuk to‘g‘ri xarakterlanganini isbotlaydi

# Avtomobil transporti orqali yuk tashish xarajatlarini qiqartirishning asosiy yo‘nalishlari

Avtomobil transportida xalqaro tashuvlarda quyidagi hujjatlar to‘ldiriladi:

- Tovar-transport yukxati *CMR*
- bu hujjat yukni tashuvchi tomonidan olingani va bitim shartlari isboti bo‘lib xizmat qiladi

CMR yukxati bo‘sh grafalardan iborat 12 varaqdan tashkil topgan

- to‘rtta nusxasi nomerlangan va yuk jo‘natuvchi, yuk oluvchi, tashuvchi va hisoblar uchun ajratilgan

Yuklarni qabul qilishda tashuvchi yukxatidagi barcha yozuvlarni tekshirib chiqishi lozim

- Xalqaro avia tashuvlarda asosiy hujjatlar bo‘lib
- aviayukxati va yuk manifesti hisoblanadi.

# Avia yuk xati

## Avia yuk xati (airwaybill)

- jo‘natuvchi va tashuvchi orasida bitim tuzilganligini ko‘rsatuvchi hujjat
- Yukxati asosiy moliyaviy va bitim hujjati, u ilova hisoblanmaydi

## Yuk jo‘natuvchi aviayukxatini ingliz tilida to‘ldirib, yuk bilan birga tashuvchiga topshiradi.

- Yuk manifesti har bir aviayukxati uchun tuziladi:
- -tashuvchi nomi va millati;
- - reys sanasi va nomeri;
- -jo‘natish va qabul qilish punktlari;
- -joy miqdori, og‘irligi va yuk nomi